

ILG'OR O'QITISH TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI

Ergasheva Mahbuba

Sharisabz davlat pedagogika instituti
“Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang’ich ta’lim) mutaxassisligi
bo’yicha 2-kurs magistranti

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi sifati har qanday davlatning zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omil sanaladi. Fan, texnika va texnologiyaning tobora taraqqiy etib borayotgani ta'lim sohasidagi tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi.

Bugungi ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi va shiddatli axborot oqimi davrida XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan “Ta'lim texnologiyalari” fani mazkur muammoni hal etadi. Ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim texnologiyalari –har bir bosqichi va har bir elementi jiddiy ishlab chiqilgan, asoslangan, loyihalashtirilgan, kafolatlanuvchi sifatli yakuniy natijaga mo'ljallangan pedagogik jarayonni tuzish va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Ta'limning yangi modelini amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan bog'liq. Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida “O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash” uning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Davr va erkin iqtisodiyotga asoslangan xozirgi zamon talabidan kelib chiqib, Davlat ta'lim standartlari doirasida zamonaviy mutaxassis sifatiga qo'yilgan talablar kuchaytirildi: mustaqil bilimlarni to'ldirish va yangilash ko'nikmasi, izlanish olib borish, yangi yechimlar qabul qilish, ijodkor shaxs bo'lish, mustaqil fikr yuritish – barkamol shaxs sifatleri tarkibini tashkil etdi.

Demak, o'qitish jarayonida mustaqil ta'lim salmog'i kuchaydi, yakka tartibda o'qitishga ehtiyoj ortti, uning metodologik yo'nalishlari va ahamiyati kuchaymoqda hamda ijodiy tafakkurni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'qitish jarayonini texnologiyalashtirish yangi asrda ustuvorlik kasb etmoqda. Buning asosiy sabablari, bizningcha, quyidagilardan iborat:

- birinchidan, an'anaviy o'qitish yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'radi va «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanadi. Bunda o'qituvchi nafaqat o'quv-biluv faoliyatining boshqaruvchisiga, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolayotganligi havflidir;
- ikkinchidan, axborotlar hajmining ko'payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklanganligi, ularni saralash va tizimlashtirishning birmuncha murakkabligi ham yangicha yondashuvlarni taqozo etadi;
- uchinchidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyalarga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv ob'ektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika ramkasidan chiqib ketishiga va tabiiy holda texnologik yondashuvlarni qo'llashga ko'proq ehtiyoj tug'dirmoqda.

Shu sababli Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilk bor mamlakatimiz ta'lim tizimida texnologiyalashtirish muammosi muhim davlat buyurtmasi sifatida e'tirof etildi o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi zaruriyat darajasida qayd qilindi.

Yillar davomida "texnologiya" tushunchasining o'zi mazmun jihatdan o'zgardi: zamonaviy yondashuvlar uchun birmuncha aniq qarashlar xarakterlidir. Misol uchun, pedagog-tadqiqotchilarning ko'pchiligi bu tushunchani tarbiya va rivojlantirish sohasida ishlatish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlaydilar. Gap shundaki, har qanday texnologiya pedagogik faoliyatda oldindan tashxisli maqsadni o'rnatish va unga erishish yo'llarini aniqlab olishni taqazo etadi.

Texnologiya - bu predmetli sohaning ob'ektiv qonunlarini yuqori o'lchovda aks ettiradigan va shu boisdan muayyan sharoit uchun natijalarning o'rnatilgan maqsadlarga mos kelishini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Shu nuqtai nazardan "o'qitish texnologiyasi" tushunchasini tahlil qilishga harakat qilamiz. Bizningcha, o'qitish texnologiyasining didaktik mohiyati nimadan iborat? O'quv jarayonining texnologiyalanuvchanligi deganda nimani tushunish kerak?

O'qitish texnologiyasining mazmuni va tuzilmasi qanday?

Pedagog-tadqiqotchilarning "o'qitish texnologiyasi" toifasi mohiyatini asoslashga urinishlarini dastlab "texnologiya" tushunchasi ahamiyatini aniqlashdan boshlashi tabiiy holdir, chunki birinchisi ikkinchisining hosilasi hisoblanadi.

Texnika fanlarida "texnologiya" tushunchasi mazmuni tayyor mahsulot olish uchun ishlov berish va o'zgartirish jarayoni va bu jarayonning me'yoriy tomonlarini qamrab oladi.

Shunday qilib, texnik lug'atlarda texnologiya deganda insonning aniq, murakkab jarayonning ketma-ket o'zaro bog'liq muolaja va amallar tizimiga taqsimlash yo'li bilan kafolatli natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan usullari tushuniladi. Bunda muolaja sifatida jamuljam harakatlar qabul qilinadi, ular yordamida u yoki bu bosh jarayon (yoki uning alohida bosqichi) bajariladi, amal esa - bu muolaja doirasidagi masalalarning bevosita amaliy yechimi, ya'ni muayyan jarayonning bir jinsli mantiqiy ajralmas qismi hisoblanadi.

Texnologiya (jarayon sifatida) uchta belgi bilan tavsiflanadi:

- jarayonni o'zaro bog'liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natija (o'rnatilgan maqsad)ga erishishga qaratilgan harakatlarni muvofiqli va bosqichli bajarish;
- quyilgan maqsadlarga mos natijalarga erishishning zaruriy va yetakchi sharti hisoblangan texnologik muolaja va amallarni bajarishning ahamiyat kasb etishi.

Hozirgi vaqtda dunyoda ishlab chiqarilgan va foydalaniladigan texnologiyalarni ikki turga bo'lish mumkin: sanoat va ijtimoiy. Shu bilan birga bu bo'linish shartli emas, balki qat'iydir. Sanoat texnologiyalariga tabiiy xom ashyolar (neftb, gaz va b)ga ishlov berish yoki ulardan tayyor mahsulotlar (metall, alohida detallar va h.k) olish texnologiyalari kiradi.

"Ijtimoiy texnologiya"da boshlang'ich va yakuniy natija sifatida inson, o'zgarishga tortilgan asosiy ko'rsatkich esa - uning bir yoki bir nechta xususiyatlari (sifatlari) hisoblanadi.

Ijtimoiy texnologiyalar har qanday sharoitga moslasha oladilar: ular texnologik jarayonni tashkil etadigan alohida jarayonlar va amallardagi kamchiliklarni tuzatishga layoqatlidirlar.

Ijtimoiy texnologiyalarning o'ziga xosligi shundaki, ular uchun teskari aloqa muhim hisoblanib, hatto tuzatish bosqichida ham texnologik jarayonning alohida unsurlarini takrorlashni tashkil etishga imkon beradilar. Va, nihoyat, ijtimoiy texnologiyalar tashkil etilishiga ko'ra birmuncha murakkabdir. Agar sanoat texnologiyalari o'zida aniq saralangan tabiiy jarayonlar zanjirini mujassamlashtirsa, ijtimoiy texnologiyalar - bu turli xil va ketma-ketlikdagi o'lchov darajasida foydalanadigan, yaxlit maqsadga erishishga yo'naltirilgan maxsus tashkil etilgan majmuadir.

Har qanday texnologiya muayyan fan va unga mos ishlab chiqarish o'rtasida oraliq xalqa ekanligini ko'rsatish joiz. Bunday xalqaning zarurligi haqidagi hammaga ma'lum haqiqat, afsuski, ta'lim tizimida mutloq inkor qilinadi. Ravshanki, fizika qonunlaridan ishlab chiqarishni texnologiyalashtirilmasdan turib, bevosita foydalanib bo'lmaydi. Shu bilan birga ta'lim muammosi bo'yicha yuzlab ishlarda, shuningdek, rasmiy hujjatlarda o'qish amaliyotiga pedagogik tadqiqot natijalarini bevosita tatbiq etilganligi to'g'risida gap boradi, holbuki buni amalda bajarish mumkin emas.

Turlicha ilmiy va o'quv-metodik manbalarda keltirilgan tariflar tahlilining ko'rsatishicha, ko'pchilik tadqiqotchilar o'qitish texnologiyasi didaktik maqsadlarga kafolatli erishishni hisobga oladigan o'quv jarayonini maqbul qurish va joriy etish bilan bog'liqligini qayd etishadi. Aynan shu tarifda o'rnatilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan birmuncha oqilona usullar va o'quv jarayonini texnologiyalashtirishning asosiy ma'nosi aks etgan. Shunday qilib, o'qitishga texnologik yondashuv berilgan dastlabki ko'rsatmalar (ijtimoiy buyurtma, ta'limiy mo'ljallar, ta'lim maqsadlari va mazmuni) asosida didaktik maqsadlarga erishish uchun o'quv jarayonini loyihalashtirishni taqozo etadi.

O'quv jarayoniga texnologik yondashish mohiyatini yoritish imkonini beradigan tayanch (kalitli) holatlarning ikkinchisi — pedagogikaning mos o'qitish vositalarini qo'llashidir. Aslida ham "texnologiya" tushunchasining klassik mazmuni muayyan texnik vositalar (stanoklar, qoliplar, avtomatik chiziqlar)dan foydalanib mahsulot ishlab chiqarish jarayonidan iborat. Bu, demak, vositalar to'plamidagi har qanday o'zgarish jarayon ko'rsatkichlarining o'zgarishiga va, o'z navbatida, texnologiyaning o'zgarishiga olib keladi.

Demak, ishlab chiqarish vositalari texnologiyada yetakchi mavqe tutadi. har qanday o'qitishning salmog'i texnologiyasida didaktik funktsiyalarni joriy etish o'qituvchining vositalarni qo'llashiga ajratiladi. Biroq o'qitish texnologiyasining ushbu tashkil etuvchisini absolyutlashtirish yaramaydi.

O'qitish vositalarining yuqori unumdorligi va ulardan foydalanishning alohidaligi mutlaqo boshqa o'qitish modelini, ta'limiy jarayonning boshqacha madaniyatini vujudga keltiradi. Biroq ishlab chiqarishning har qanday vositalari yuqori unumda ishlay olmaydi va tabiiyki, ulardan texnologiyalarda foydalanish mumkin emas. Bu degani har qanday o'qitish vositalari texnologiyani yaratishga qodir ekanligini inkor qiladi va texnologiyani shakllantiruvchi omil o'rnida qabul qilinmaydi.

Shunga ko'ra biz o'z tadqiqotimizda quyidagi yangi tarifni qo'lladik va ilmiy jihatdan izohladik. O'qitish texnologiyasi bu ilmiy asoslangan didaktik jarayon loyihasini amalga oshiruvchi va birmuncha yuqori darajadagi samaradorlikka, ishonchlilikka va kafolatga ega natijalarga molik qonunmonand pedagogik faoliyatdir.

Bu tayanch ta'rifni o'qitish texnologiyasi ma'lum pedagogik shart-sharoitlar ostida invariantli kechadigan va kutilayotgan natijani ta'minlovchi muayyan masalalar bilan mantiqiy tuzilmalangan didaktik jarayon yoxud kontseptual va amaliy ahamiyatli g'oyalar, o'qitish printsiplari, metodlari va vositalarning yaxlit tizimi sifatida, keyinroq qayta takrorlanuvchi, nusxalashtiruvchi ta'lim sifat hamda samarasining yuqori darajasini kafolatlovchisi sifatida yuzaga keladigan holatlardagina o'zgartirish mumkin. Shu nuqtai nazardan o'qitish texnologiyasini ta'limiy jarayonning o'zgaruvchan sharoitida kutilayotgan o'qitish natijasiga erishishni instrumental ta'minlovchi pedagogik harakat, amal va muolajalarning tartibli yig'indisi sifatida qarash mumkin.

Ushbu o'rinda o'qitish texnologiyasining bir muhim xususiyatiga to'xtab o'tish maqsadga muvofiqdir. Qator ilmiy-metodik va ilmiy-ommabop manbalarda mualliflar bu tushunchani "o'qitish metodikasi" bilan o'zaro munosabatini aniqlashtirishga urinadilar. Shu bilan birga ko'p holatlarda mualliflar ularni bir-biriga qarshi qo'yishga harakat qiladilar. Qo'yilgan savolga javob berishga harakat qilamiz: metodika va o'qitish texnologiyasining farqi nimada, birining o'rniga boshqasini almashtirish holatiga yo'l qo'yilmayaptimi?

Birinchidan, ularning asosiy farqi shundan iboratki, metodika "qaysi yo'l bilan o'qishda talab etilgan natijaga erishish mumkin?" degan savolga javob bersa, texnologiya: "uni shunday qilib kafolatlash mumkin?" degan savolni o'rtaga tashlaydi va javob topadi.

Ikkinchidan, o'qitish texnologiyasi ravshan ifodali shaxsga yo'naltirilgan xarakter kasb etadi va o'z mohiyatiga ko'ra "mualliflik o'qitish metodikasi" tushunchasiga juda yaqin. Agar "metodika" tushunchasi o'qitish metodlari va usullari majmuidan foydalanish muolajalarini qoidaga ko'ra nisbatan egasiz, amalga oshiruvchisiz ifodalasa, o'qitish texnologiyasi unga o'qituvchi shaxsini uning barcha xilma-xil ko'rinishlari bilan qo'shib qo'yishni taqozo etadi. Bundan ravshan: har qanday didaktik masalalar malakali pedagoglar tomonidan loyihalangan va joriy etiladigan texnologiyalar yordamida samarali yechilishi mumkin. Shunday qilib, o'qitish texnologiyasi o'qituvchining pedagogik mahorati bilan uzviy bog'liq. Uni mukammal egallash mahorat demakdir. Biroq pedagogik mahorat boshqa tomondan texnologiyani egallashning yuqori darajasidir, u faqat amaliy komponentlar bilan chegaralanmaydi. Pedagoglar o'rtasida pedagogik mahorat mutlaq individual, shu boisdan uni qo'ldan qo'lga uzatish mumkin emas, degan mustahkam fikr tasdiqlangan. Biroq, agar o'qitish texnologiyasiga pedagogik jarayon sifatida emas, balki loyiha, pedagogik faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish uchun o'ziga xos instrumentariy sifatida qaralsa, unda texnologiya nafaqat uning muallifi balki uning davomchilari tomonidan ham amalga oshiriladi. Bunda, albatta, u shaxsiy kasbiy sifatlar va ko'rsatkichlar hisobga olinib aniqlashtiriladi, biroq uning asosiy tuzilmali komponentlari o'zgarishsiz qolaveradi, chunki ular aniq maqsad va vazifalarga mos holda tizimli bog'langan va shu maqsadda loyihalangan. O'qitish texnologiyasining metodikadan muhim farqlaridan biri ham ana shundadir.

Bizning fikrimizcha, o'qitish texnologiyasi bu metodikaning birmuncha yuqori bosqichdagi rivojidan boshqa narsa emas, qachonki uning jonlanishi bilan asosiy tashkil etuvchilariga batafsil ishlov berish bajariladi: maqsadga muvofiqlik, bashoratlash; eng maqbul shakl, metod va o'qitish vositalarini tanlash; o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini tashkil etish; didaktik maqsadlarga kafolatli erishish maqsadida ta'lim oluvchilarning bilim,

ko'nikma va malakalarini baholash, nazorat qilish va tuzatish. SHunday qilib, har qanday o'qitish metodikasi texnologiya darajasiga ko'tarilishi mumkin. Buning uchun uning asosiy tashkil etuvchilarini tuzatish va mavjud teskari aloqalar asosida izchil maqbullashtirish talab etiladi.

O'quv jarayonida pedagog tanlagan shakl, metod va o'qitish vositalari ta'lim oluvchilar bilan o'zaro harakat tizimi yordamida aniqlanadi. Agar darhol zaruriy didaktik natijani olib bo'lmasa, unda metodikaning (masalan, birmuncha takomillashgan o'qitish vositalari, metodik usullar va boshqalarni qo'llash) ko'rsatkichlarini tuzatish va oydinlashtirish bosqichini amalga oshirish kerak bo'ladi. Bu jarayon tashxisli maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan maqbul o'qitish metodikasining topilishi bilan tugallanadi. Agar u ko'p marta qayta takrorlansa, o'qituvchiga pedagogik amaliyotda oldindan bashoratlovchi va loyihalovchi natijalarni olish imkoniyatini beradi. U paytda metodika haqida emas, balki o'qitish texnologiyasi haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Texnologik darajadagi o'qituvchi faoliyatining mezonlari sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin.

- aniq va tashxisli berilgan maqsadlarning mavjudligi, ya'ni tushunchalar, va amallarni kutilayotgan o'qitish natijasi sifatida ta'lim oluvchining faoliyatidagi maqsadga erishishni tashxislash usullarining tartibli o'lchanadigan holatda ko'rsatilishi;

- o'rganilayotgan mazmunni bilish, amaliy masalalar, mo'ljalli asoslar va ularni yechish usullarining tizimli ko'rinishida taqdim etilishi;

- mavzular (materiallar, kasbiy funktsiyalar to'plami va h.k)ni yetarlicha qat'iy ketma-ketligi, mantiqiyliqi, bosqichliligi mavjudligi;

- o'quv jarayonining har bir bosqichida ishtirokchilar o'zaro harakat usullarining ko'rsatilishi;

- o'qituvchining eng maqbul (o'quv jarayonining natijaviyligi nuqtai nazaridan) o'qitish vositalaridan foydalanishi;

- o'qituvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatining motivatsion ta'minlanishi, bu jarayonda ularning shaxsiy-kasbiy funktsiyalarining namoyon bo'lishi (erkin tanlash, kreativlik, bahslashuv, hayotiy va kasbiy ma'no);

- o'qituvchining qoidamonand (algoritmik) va ijodiy faoliyati chegarasini andozali qoidalardan mumkin bo'lgan chetga chiqishining ko'rsatilishi.

Zamonaviy oliy ta'lim strategiyasini nafaqat mavjud bo'lgan ijtimoiy

texnologiyalarga xizmat ko'rsatishga qodir, balki me'yoriy faoliyat chegarasidan chiqib ketishga, innovatsion jarayonlarni amalga oshira oladigan mutaxassis shaxsini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish tashkil etadi. Bu strategiya shaxsiy-rivojlanuvchan va kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari ustuvorligida oliy maktab o'quv jarayoni mazmuni va shakllarining jiddiy yo'nalishlarida amalga oshiriladi.

Ularning samaradorlik me'yori quyidagi savollar vositasida ifodalanadi:

1. Bu texnologiyalarda inson o'zining xilma - xil sub'ektivligi bilan nechog'liq gavdalantirilyapti?

2. Uning tavsifiy, mantiqiy va psixologik xususiyatlari qanday hisobga olinayapti?

3. Ularni rivojlantirish yoki yuksaltirish istiqbollari qanaqa?

Yuqoridagilardan oliy maktabda o'qitish texnologiyasiga qo'yilgan talablar kelib chiqadi: ta'lim oluvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish, maqbullik, didaktik printsiplarga zid kelmaslik, talabalarning bilish faoliyati faollashtirishga yo'naltirilganligi.

SHunday qilib, o'qitish texnologiyasini ishlab chiqarish asosida ta'lim oluvchilarning yuqori samarali o'quv faoliyatini va o'qituvchining boshqaruv faoliyatini loyihalashtirishi yotadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan umumlashgan holda o'qitish texnologiyasi mohiyati quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

- birinchidan, pedagogik amaliyotda takror ishlab chiqarish imkoniyatini hisobga olgan holda o'quv jarayonining oldindan loyihalanishi;
- ikkinchidan, o'rnatilgan didaktik maqsadlarga erishish sifatini ob'ektiv nazorat qilish imkoniyatlarini prognozlaydigan maxsus tashkil etilgan maqsadga muvofiqligi;
- uchinchidan, o'qitish texnologiyasining tuzilmali va mazmunan yaxlitligi;
- to'rtinchidan, eng maqbul metodlar, shakl va vositalarni o'qitish texnologiyasining barcha elementlari tamoman qat'iy va qonuniyatli bog'lanishlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi;
- beshinchidan, o'qitish jarayonini o'z vaqtida va tezkor tuzatishga imkon beradigan teskari aloqalarning mavjudligi. Demak, o'qitish texnologiyasi o'zida yaxlit didaktik tizimni qamrab olib, pedagogik masalalarni birmuncha samarali, kafolatli sifat bilan yecha oladi.